

AKTIVLARNI DEKLARATSIYA QILISHNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDAGI MUHIMLIGI

Xoshimov Salimjon Zokirovich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi*

Davranov Xusniddin Baxranovich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
bosh yuriskonsulti*

Annotatsiya. Maqolada korruptsiyaning salbiy oqibatlari, unga qarshi kurashishda mansabdor shaxslarning aktivlarini deklaratsiya qilishning muhimligi, mazkur yo'nalishda rivojlangan ilg'or davlatlar tajribasining ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: korruptsiya, aktivlar, aktivlar deklaratsiyasi, profilaktika, manfaatlar to'qnashuvi.

Abstract. The article describes the negative consequences of corruption, the importance of declaring assets of officials in the fight against it, as well as the significance of the experience of advanced countries that have developed in this direction.

Keywords: corruption, assets, asset disclosure, prevention, conflict of interest.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarining diqqat markazida turgan eng muhim masalalardan biri – korruptsiyaga qarshi kurashish hamda uning jamiyatda tutgan salmog'ini kamaytirishdan iborat. Korruptsiyaning kamayishi hokimiyat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatli holatning ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashda har bir davlat o'ziga xos tizim va vositalarga ega. Biroq, ularning samarali ishlashi uchun ilg'or xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganib borish va ijobiy natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muntazam ravishda tadqiqot olib borish zarur.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, korruptsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasidan foydalanish ko'plab davlatlarda joriy etilgan.

Aktivlar deklaratsiyasi[1] (keyingi o'rinlarda deklaratsiya) korruptsiyaga qarshi kurashda muhim mexanizm hisoblanadi. Deklaratsiya –davlat xizmatchilari, xususan, mansabdor shaxslar daromadlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga yo'naltirilgan hujjat.

Deklaratsiyaning dastlabki rivojlanish bosqichi Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSH va G'arbiy Yevropada boshlangan bo'lib, davlat xizmatchilariga nisbatan qo'llanilgan. AQSHda mansabdor shaxslar orasida to'xtovsiz davom etgan korruptsiya illati davlat vakillarining kasb etikasini mustahkamlash bo'yicha amalga

oshiriladigan yangi chora-tadbirlarni joriy qilishga katta turtki bo'ldi. Federal darajadagi davlat mansabdor shaxslari daromadlarining ochiqligini ta'minlash zarurligi to'g'risida birinchi bo'lib AQSHning 33-prezidenti Garri Trumen 1951-yilda Kongressga[2] murojaatnomasida quyidagi fikrlarini bayon qilgan: "Bugungi kunda jamiyatdagi muammolardan kelib chiqib, davlat mansabdor shaxslarining halol va pokligiga shubha uyg'otmaslik uchun, biz barchamiz daromadlarimiz to'g'risidagi ma'lumotlarni jamiyatga ochiqlashga tayyormiz". [3]

Biroq, turli sabablarga ko'ra, XX asrning 50 yillarida davlat xizmatchilariga nisbatan aktivlar deklaratsiyasini joriy qilish ishlari amalga oshirilmadi. Faqatgina, 1965-yilga kelib, AQSHning 36-prezidenti Lindon Djonson federal darajadagi mansabdor shaxslarga daromadlarini oshkor qilish majburiyatini joriy qildi. 1969-yilga kelib AQSHning 11 ta shtatida deklaratsiya mexanizmi joriy etilgan edi. Butun mamlakat miqyosida deklaratsiyalash mexanizmiga o'tish Uotergeyt mojarosidan [4] so'ng amalga oshirildi. 1978-yilda qabul qilingan "Davlat mansabdor shaxslarining etikasi to'g'risida"gi qonunga asosan, bugungi kunga qadar AQSHda davlat xizmatchilari aktivlar deklaratsiyasini taqdim etib kelmoqdalar.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida, Buyuk Britaniyadan tashqari (ushbu mamlakatda

1974-yilda Parlament vakillarining moliyaviy manfaatlarini ochiqlash mexanizmi joriy qilingan), davlat xizmatchilarining daromadlari, xarajatlari, mulklari va moliyaviy manfaatlarini ochiqlash tizimi biroz kech tatbiq qilingan.

Davlat xizmatchilarining aktivlar deklaratsiyasi mexanizmi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 1980-yillardan amaliyotga tatbiq etila boshlagan. Ispaniyada 1982-yilda "Aktivlar deklaratsiyasi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, shu yilning o'zida Italiyada Parlament a'zolariga qo'shimcha daromadlari va mavjud mulklarining holati to'g'risida ma'lumot taqdim etish majburiyati yuklatilgan. 1983-yilda "Saylangan mansabdor shaxslarning moddiy ahvolini jamoatchilik tomonidan nazorat qilish to'g'risida" Portugaliya qonuni qabul qilingan.

Alohida ta'kidlash kerakki, G'arbiy Yevropa davlatlarining o'tgan davrlardagi va hattoki joriy deklaratsiyalash mexanizmi, xususan, ulardagi ma'lumotlarni oshkor qilish, davlat xizmatchilarining qamrab olish darajasi va nazorat qilishi mexanizmi AQSHning deklaratsiyalash mexanizmidan sezilarli darajada farq qiladi.

AQSHda asosiy urg'u barcha davlat xizmatchilariga, G'arbiy Yevropa davlatlarida esa, asosan, yuqori turuvchi mansabdor shaxslarga qaratilgan. Shuningdek, AQSHda taqdim qilingan deklaratsiya ma'lumotlari soliq va moliyaviy nazorat organlari tomonidan tekshirilsa, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida esa davlat xizmatchisi ish olib borayotgan tashkilotining markaziy apparatida faoliyat olib boruvchi axloq-odob harakati boshqarmalari tomonidan nazorat qilinadi.

Markaziy va Sharqiy Yevropada 1990-yildan so'ng sotsialistik tuzumda siyosat yuritgan davlatlarning demokratlashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashda yangi mexanizmlarga bo'lgan talab natijasida ushbu mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini amaliyotga joriy qilish asosan 1990-2000-yillar oralig'ida amalga oshirilgan.

Jahonda korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasining joriy qilish amaliyotiga asosiy turtki bo'lgan holat, bu 2003-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) qabul qilinganligi bilan bog'liq. Sababi ushbu Konvensiyaning 20-moddasi "Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi"da "Davlat mansabdor shaxslarining noqonuniy daromad olganligi

aniqlansa, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rish imoniyatlarini ko'rib chiqadi"[5], deb belgilangan.

Konvensiyaning ushbu moddasiga asosan, noqonuniy daromadni aniqlash deklaratsiyalash mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Ushbu Konvensiyaning ratifikatsiya qilgan davlatlar mansabdor shaxslar orasida korrupsiyaga qarshi kurashda deklaratsiya mexanizmini joriy qilishga kirishdilar. Buning natijasida jahonda aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini korrupsiyaga qarshi kurashda qo'llaydigan davlatlar soni keskin ortdi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, xalqaro miqyosda davlatlarda aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini amaliyotga tatbiq etish asosan quyidagi uch bosqichda namoyon bo'ladi:

dastlabki bosqich 1970-1990-yillarni qamrab olib, "Amaliyotga tatbiq qilish bosqichi" hisoblanadi. Jumladan, davlatlardagi korrupsiyaga oid muammolarning ortishi va ularga qarshi kurashda yangicha mexanizmlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib rivojlangan;

2-bosqich 1990-2003-yillar oralig'ini o'z ichiga oladi. "Rivojlanish bosqichi" deb nom olgan ushbu bosqichda ko'plab davlatlarning demokratlashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatning o'rni ortib borishi, ya'ni davlat xizmatchilarining daromadlari va mulklari shaffofligini hamda oshkoraligini ta'minlashga intilishi bilan bog'liq;

3-bosqich 2003-yildan hozirga qadar davom etib kelayotgan "Xalqaro-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solish bosqichi" deb nomlandi. Ushbu bosqichda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida (2003-yil 31-oktyabr, Nyu-York), shuningdek, IHRT doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakat rejasiga (2003-yil 10-sentyabr, Istanbul) qo'shilgan davlatlarga korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha ko'rsatmalar berib o'tilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashda faqat post-faktum kurashish yetarlicha samara bermaydi, unga qo'shimcha tarzda oldini olish choralari ko'rish juda muhim. Oldini olish bo'yicha ishlarni tashkillashtirishning zarurligi bo'yicha bir qancha fikrlar ilgari suriladi.

Birinchidan, korrupsion jinoyatlarning aksariyati latent holatda, ya'ni oshkor bo'lmagan qoladi. Bunda tomonlarning o'zaro manfaatdorligi asosiy sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, korrupsiya juda murakkab hodisa bo'lib, uni isbotlash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, natijada yetarli dalillarsiz korrupsioner jazosiz qolaveradi.

Uchinchidan, tekshirish ishlari, ayniqsa xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan ishlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning uzoq muddatli hamkorlikdagi faoliyatini talab etishi, jinoyat ishlari sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat xizmatchilarining o'z harakatlari uchun mas'uliyatini oshirishga oshkoralik prinsipi ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiyaga qarshi konvensiyaning 5-moddasi 1-bandida davlat boshqaruvining shaffofligi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining asosiy tamoyillaridan biri deb e'tirof

etilgan. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasini amalga oshirish bo'yicha texnik qo'llanmada quyidagilar ta'kidlanadi: "Umumiy prinsipga ko'ra, davlat organlarida shunday sharoit yaratish kerakki, unda xizmatlar ko'rsatish jarayoni oshkora va shaffofligi ta'minlangan bo'lishi, toki shaxsiy va o'zgarar manfaatlariga asoslangan sovg'a va mehmondo'stlik munosabatlari rasmiy harakatlar va qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsata olmasligi zarur" [6].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkin, korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasi samarali mexanizm hisoblanib, fuqarolarning davlat xizmatchilariga bo'lgan ishonchini ta'minlaydi. Bugungi kunda, mamlakatimizda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasiga tayangan holda aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

